



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Qo'qon davlat universiteti
Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi
Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi

Kalit so'zlar: metod, metodika, integratsiya, integratsiyali dars, innovatsiya, kommunikativ ko'nikma, metodologiya, bilim, ko'nikma, malaka.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ rivojlanish jarayonini samarali tashkil etish uchun, eng avvalo, ularning yoshga oid psixologik, fiziologik va kognitiv xususiyatlarini chuqur anglash talab etiladi. Bu davrda bolalarda aqliy va hissiy faollik shiddat bilan yuksalib, ularning muloqotga bo'lgan ehtiyoji ortib boradi. Bolalar tabiiy ravishda yaqinlari, sinfdoshlari va kattalar bilan munosabat o'rnatishga intiladilar, fikr bildirish, savol berish, tushunmagan joylarini so'rab olish va erkin mulohaza yuritishga urinadilar. Lekin ularning nutqiy rivojlanishi hali mukammal emas: so'z boyligi cheklangan, grammatik qurilishda xatolar ko'p uchraydi, ma'no jihatidan aniq va izchil fikr yuritish qobiliyati asta-sekin rivojlanib boradi. Shu bois, pedagoglar bolalarning yosh xususiyatlariga mos ravishda muloqot muhitini yaratishi, ularni ruhlantirishi, kuchli tomonlarini aniqlab, kamchiliklarni maqsadli tuzatishi zarur.

Psixologiyada bolalar muloqotining rivojlanishi senzitiv, ya'ni hissiy ta'sirchan davr bilan tavsiflanadi. Masalan, V.S.Muxina ta'kidlaganidek: "Boshlang'ich yoshda muloqot shaxs rivojlanishi uchun o'ta muhim funksiyalarni bajaradi: bola uning orqali o'z-o'zini anglaydi, atrofdagilar bilan munosabat o'rnatadi va ijtimoiy hayotda o'rniga ega bo'ladi".¹ Shu jihatdan, bolaning nutqiy-ijtimoiy rivojlanishi tarbiyachilar va o'qituvchilar tomonidan doimiy ravishda qo'llab-quvvatlanmasa, u muloqotda passivlikka, qiyinchiliklarni yashirishga, fikr bildirishdan qochishga moyil bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, yosh xususiyatlarining ta'siri shundaki, bolalar ko'proq harakatli, emosional va tasavvurga boy bo'lib, ular uchun turli holatlar, so'zlar va vaziyatlarni bevosita namoyish qilish orqali o'rgatish samarali hisoblanadi. Shuning uchun nutqiy rivojlanish faqat yozma topshiriqlar bilan emas, balki rolli o'yinlar, sahnalashtirish, dialog mashqlari, ijodiy nutqiy faoliyat orqali amalga oshirilishi kerak. Shuningdek, bolalarning yoshga oid xususiyatlari ulardagi rivojlanish sur'atlari, individual imkoniyatlar va qiziqishlarni ham hisobga olish zarurligini taqozo etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlari ularning muloqot qobiliyati shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Bu yoshda bolalarda hissiy ta'sirchanlik, harakatchanlik, takrorlash va taqlid orqali o'rganishga moyillik, shuningdek, ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topishga bo'lgan tabiiy ehtiyoj kuchli bo'ladi. Psixologik jihatdan bolalar muloqot jarayonida nafaqat axborot

¹ Мухина В.С. Возрастная психология. – М.: Академия, 2000. – С. 97.

almashadi, balki o‘zini namoyon qilish, shaxsiy fikr va his-tuyg‘ularini bayon etish, jamoada e‘tirof topish orqali rivojlanadilar. Shu sababli, ularning yoshga oid psixologik xususiyatlarini chuqur tushunish muloqot qobiliyatini rivojlantirish jarayonida maqsadli pedagogik yondashuvlarni belgilash uchun zarur asos hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinfda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning nutqiy, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini ta‘minlash uchun muhim poydevor hisoblanadi. Bu bosqichda o‘quv muhitini to‘g‘ri tashkil etish, bolalarda muloqotga qiziqish uyg‘otish, ularni faol ishtirokchi sifatida tarbiyalash va o‘zaro hamkorlikda so‘zlashish ko‘nikmalarini shakllantirish pedagogning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib, bunda o‘quvchi markazida qurilgan, faol va interaktiv metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bolalarning yosh xususiyatlari va nutqiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda maqsadli pedagogik yondashuvlarni belgilash kommunikativ rivojlanish samaradorligini ta‘minlaydi.

Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilarning kommunikativ faolligini oshirish va nutqiy qobiliyatlarini shakllantirishda *pedagogik ta‘sir va rag‘batlantiruvchi usullar* alohida o‘rin tutadi. Bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib o‘qituvchi tomonidan to‘g‘ri tanlangan ta‘sir usullari va muloqotga yo‘naltirilgan faoliyat shakllari ularda nutq orqali o‘zini ifoda etish, fikrlash, muhokama qilish va ijtimoiy munosabat o‘rnatish qobiliyatini faollashtiradi.

Psixologiya bolalarda muloqot ehtiyoji, hissiy ta‘sirchanlik, shaxsiy rivojlanish bosqichlari, qo‘rquv va ishonch, motivatsiya va ijtimoiy adaptatsiya kabi omillarni o‘rganadi. Mazkur ilm bolaning nutqiy faollikka psixologik tayyorligi, shaxsiy xususiyatlari va muloqotga emosional munosabatini hisobga olishga yordam beradi. Masalan, uyalish, xatodan qo‘rqish, passivlik kabi to‘siqlarni bartaraf etishda pedagog psixologik yondashuvdan foydalanishi lozim.

Pedagogika esa muloqotning ta‘limiy vazifalar bilan bog‘liq jihatlarini belgilaydi. U qanday mashg‘ulotlar, dars shakllari va o‘qitish usullari orqali bolalarda kommunikativ ko‘nikmalar shakllanishini ta‘minlashni o‘rganadi. Pedagogik yondashuvda muloqot tarbiya vositasi, o‘quv usuli va shaxs rivoji uchun muhim pedagogik muhit sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdelghani R., Oudeyer P.-Y., Law E. *Conversational agents for fostering curiosity-driven learning in children* // arXiv:2204.03546. 2022.
2. Chomsky N. *Aspects of the Theory of Syntax*. – Cambridge: MIT Press, 2005. – P. 4.
3. Duschanova N.S. *Zamonaviy pedagogik yondashuvlar: qiyosiy tahlil. Academic Research in Educational Sciences*. Volume 3, Issue 3, March, 2022.
4. Haiman G. *Group communication in school environments*. – New York: Palgrave Macmillan, 2015. – P. 67.